QASDDAN BADANGA SHIKAST YETKAZISH JINOYATLARI BO'YICHA SUD AMALIYOTI: YARASHUV INSTITUTINI QO'LLASHNING KRIMINOLOGIK OQIBATLARI

Nurmetov Qurbondurdi
Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tezisda qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-moddasi) jinoyatlari bo'yicha yarashuv institutini (JK 66[1]-moddasi) qo'llash amaliyoti va uning kriminologik oqibatlari qaytaruvchi adolat hamda jazoning oldini olish nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Sud amaliyoti ma'lumotlari yarashuvning keng qo'llanilishini, jinoyatlarning asosan maishiy va shaxslararo nizolar zaminida, qurolsiz sodir etilishini ko'rsatadi. Institutni cheklash emas, balki xavf darajasiga qarab tabaqalashtirilgan qo'llash va jabrlanuvchi ixtiyoriyligini kafolatlovchi mexanizmlar zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: yarashuv, qaytaruvchi adolat, badanga yengil shikast, jabrlanuvchi, retsidiv, jazoning muqarrarligi, viktimologik kafolatlar.

Kirish. Yarashuv jinoiy-huquqiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyilining ifodasi sifatida joriy etilgan. JK 66[1]-moddasiga ko'ra, qasddan badanga yengil shikast yetkazish kabi jinoyatni sodir etgan shaxs o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin [1]. Bu sudga majburiyat emas, vakolat beradi; ish yuritishni tugatish tartibi JPK [2] va Oliy sud Plenumining 27-son qarori [3] bilan belgilanadi. Institut oddiy maishiy nizolar uchun shaxsga sudlanganlik tamg'asini qo'ymaslikka xizmat qiladi. Biroq uning ommaviy qo'llanilishi kriminologik jihatdan baholanishi lozim: u jinoyatning oldini olish, takroriylik va jabrlanuvchi huquqlariga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Nazariy asoslar. Yarashuvni ikki mantiq belgilaydi. Birinchisi – qaytaruvchi adolat, jinoyat tomonlar o'rtasidagi zarar sifatida ko'riladi va jabrlanuvchi ehtiyojlari, aybdorning mas'uliyati hamda jamiyatga qayta qo'shilishiga urg'u beriladi [5, 6]. N.Kristi nizoning davlat tomonidan tomonlardan "tortib olinishi" jabrlanuvchini chetga surishini tanqid qilgan [7]; yarashuv bu ma'noda nizoni tomonlarga qaytaradi. Ikkinchisi – to'xtatuvchi ta'sir nazariyasi, jinoyatchilikni jilovlashda jazo og'irligidan ko'ra uning muqarrarligi, ayniqsa ushlanish ehtimoli muhimroq [8]. Demak, yarashuv bir jihatdan adolatni tiklaydi, ikkinchi jihatdan sanksiya muqarrarligini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, qaytaruvchi adolat aybdorning mas'uliyatini anglashini ko'zda tutadi, amaliyotda esa yarashuv ko'pincha zararni qoplash va ariza berishga qisqaradi – bu qaytaruvchi adolat mohiyatidan uzoqlashishdir.

Qo'llanish ko'lami va jinoyatchi profili. Sudga oshirilgan ishlarning salkam 60 foizi yarashuv orqali tugatilmoqda. Jinoyat sodir etganlarning qariyb 88 foizini erkaklar, 80 foizdan ortig'ini oilali shaxslar tashkil etadi; 70 foizdan ortiq holatda jinoyat qurolsiz, jismoniy kuch ishlatib sodir etilgan. Bu zo'ravonlikning instrumental emas, ekspressiv – to'satdan yuzaga kelgan g'azab va past muloqot madaniyati bilan bog'liq maishiy-oilaviy nizolar tabiatida ekanini ko'rsatadi. Impulsiv xulq-atvorni jazo qo'rquvi to'liq to'xtata olmaydi, shuning uchun faqat sanksiyaga tayanish yetarli emas, nizoni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish ham zarur. Yuqori ulush yarashuv asosiy "filtr"ga aylanganini bildiradi, biroq "aybdorlarning aksariyati javobgarlikdan qutulmoqda" degan xulosa uchun yarashuv shartlarining (zararni qoplash, ixtiyoriylik) sifati ham baholanishi kerak.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Takroriylik masalasi. Jinoyat sodir etganlarning qariyb 11 foizi ilgari sudlangan yoki probatsiya nazoratida bo'lgan. Bu – xavf markeri, ammo yarashuv retsidivni oshiradi degan xulosa uchun yetarli emas: buning uchun yarashuv qo'llangan va jazo tayinlangan shaxslarning takroriy jinoyat ulushini bir xil kuzatuv muddatida solishtirish zarur. Aksincha, qolgan taxminan 89 foiz shaxsning ilgari sudlanmaganligi birinchi marta jinoyat sodir etganlarga nisbatan yarashuv sudlanganlik tamg'asi keltirib chiqaradigan ikkilamchi deviantlik xavfini kamaytirishini ko'rsatadi. Shu sababli institutni bekor qilish emas, xavfga qarab tabaqalashtirish maqsadga muvofiq. JK 66^1-moddasi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslarga yarashuvni qo'llashni taqiqlaydi [1]; yengil zo'ravonlik bo'yicha takroriy yarashuvdan foydalanish esa alohida cheklovga ega emas.

Viktimologik jihat. Jabrlanuvchilarning taxminan 34 foizi zaif toifalar – ayollar, keksalar, voyaga yetmaganlar va nogironligi bo'lgan shaxslar. Oilaviy va qo'shnichilik munosabatlarida bunday jabrlanuvchilar uchun yarashuvning ixtiyoriyligi ruhiy bosim, tahdid, moddiy qaramlik yoki andisha tufayli shubhali bo'lishi mumkin. Bu holatda tomonlar o'rtasidagi kuch nomutanosibligi yarashuvni tenglar kelishuvi emas, zaif tomon ustidan bosimga aylantiradi va zo'ravonlikni latent holatga o'tkazib, og'irroq jinoyatlarga eskalatsiya xavfini oshiradi. Shu bilan birga mavjud ma'lumotlar bosim holatlari tarqalganligini o'lchamaydi; "majburiy yarashuv"ni hozircha gipoteza sifatida qabul qilib, jabrlanuvchilar so'rovi va yarashgandan keyingi takroriy murojaatlar tahlili orqali tekshirish lozim.

Xulosa va takliflar. Yarashuv institutini yo'q qilish emas, uni kriminologik filtrdan o'tkazish zarur. Quyidagilar taklif etiladi: birinchidan, xavfga asoslangan tabaqalashtirish – takroriy yoki ilgari shaxsga qarshi zo'ravonlik sodir etgan shaxslar uchun yarashuvni muayyan muddat doirasida cheklash; ikkinchidan, viktimologik kafolatlar – sudning jabrlanuvchi bilan ayblanuvchisiz suhbati, oilaviy zo'ravonlik tarixini tekshirish, o'ylab ko'rish muddati va ixtiyoriylikning protokolda aks etishi, zarur hollarda himoya orderi; uchinchidan, yarashuvga mazmun berish – zararni qoplash bilan birga g'azabni boshqarish dasturini sud belgilaydigan shart sifatida kiritish va profilaktik kuzatuvni mahalla yettiligi orqali mutanosiblik tamoyiliga rioya qilgan holda tashkil etish; to'rtinchidan, yarashuv va retsidiv statistikasini alohida yuritish. Bu yarashuv insonparvarligini saqlagan holda jazoning oldini olish funksiyasini va jabrlanuvchi himoyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 2002-yil 25-oktabrdagi 27-son qarori.
4. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. 1-jild. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Toshkent: ILM ZIYO, 2011.
5. Braithwaite J. Restorative Justice & Responsive Regulation. Oxford: Oxford University Press, 2002.
6. Zehr H. The Little Book of Restorative Justice. New York: Good Books, 2015.
7. Christie N. Conflicts as Property // British Journal of Criminology, 1977, Vol. 17, No. 1, pp. 1–15.
8. Nagin D.S. Deterrence in the Twenty-First Century // Crime and Justice, 2013, Vol. 42, No. 1, pp. 199–263.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.